

“TASDIQLAYMAN”



**O'zbekiston Respublikasi Odil
sudlov akademiyasi Kengashi raisi**

H-M.Isoqov

**O'zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi Kengashi yig'ilishining
1-sonli BAYONNOMASI**

2025-yil 24-sentabr

Toshkent shahri

Raislik etuvchi:

H-M.Isoqov yu.f.n., dotsent – Odil sudlov akademiyasi
Kengashi raisi,

Ishtirok etdilar:

Odil sudlov akademiyasi Kengashining a'zolari: DSc,
professor D.U.Aripov, yu.f.d., professor I.I.Nasriev,
yu.f.d., professor B.B.Samarxodjaev, yu.f.n., dotsent
Sh.Haqnazarov, Robaxon Anvarovna Maxmudova,
Abdulxakim Xushbokovich Eshmuratov, Alisher
Abduxalimovich Jalilov, Shuxrat Tagaymuratovich
Polvanov, professor Axror Mo'minovich
Xoshimxonov

Onlayn tarzda Zoom orqali: professor Mir-Akbar
Xodji-Akbarovich Raxmankulov, professor
Mirzayusup Xakimovich Rustambaev,
yu.f.n., dotsent Kolenko Yevgeniy Vyacheslavovich,
Asqar Boisovich G'afurov, yu.f.n., dotsent Malika
Pirnazarovna Qalandarova.

Kengash kotibi – yu.f.n., dotsent S.Xolbayev.

KUN TARTIBI

1. “O'zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi kasbiy qayta tayyorlash kurslarining sud ixtisosliklari bo'yicha malaka talablari”ni tasdiqlash to'g'risida.

2. "O'zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasining sudya va sudlar apparati xodimlarining malakasini oshirish kurslari to'g'risida"gi Nizomni tasdiqlash to'g'risida (**I.Palvanov**).

3. "O'zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi rahbarlik lavozimlarini egallash uchun zaxirada bo'lgan sudyalarni qayta tayyorlash kurslari to'g'risida"gi Nizomni tasdiqlash to'g'risida (**D.Aripov**).

4. "O'zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasining professor-o'qituvchilari tarkibi mehnatini me'yorlashtirish tartibi to'g'risida"gi Nizomni tasdiqlash to'g'risida (**I.Palvanov**).

5. "O'zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasida tinglovchilar bilimini nazorat qilish va baholash tartibi to'g'risida"gi Nizomni tasdiqlash to'g'risida (**I.Palvanov**).

6. "O'zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi bitiruvchilarini yakuniy attestatsiyadan o'tkazish to'g'risida"gi Nizomni tasdiqlash to'g'risida (**I.Palvanov**).

7. Akademiyada kasbiy qayta tayyorlash kurslarining o'quv rejalari va dasturlarini tasdiqlash to'g'risida (**I.Palvanov**).

8. "O'zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi xodimlarini moddiy rag'batlantirish maxsus jamg'armasini shakllantirish va uning mablag'laridan foydalanish tartibi"ni tasdiqlash to'g'risida (**H-M. Isoqov**).

9. O'zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi attestatsiya komissiyasi tarkibini tasdiqlash to'g'risida (**H-M. Isoqov**).

Kun tartibidagi birinchi masala yuzasidan D.Aripov so'zga chiqib, Talablarning mazmun-mohiyati to'g'risida qisqacha axborot berdi.

H-M.Isoqov: Mazkur Talablar bo'yicha kimda qanday savollar, fikr-mulohazalar mavjud?

A.Xoshimxonov: Shanba kuni ham dars mashg'ulotlari o'tkazilar ekan, shu kunlari aynan qaysi fanlardan darslar bo'ladi?

D.Aripov: Akademiyada dars mashg'ulotlari asosan ikkita yo'nalishda olib boriladi, ya'ni maxsus fanlar va umumiy kasbiy ko'nikmalar fanlari o'tiladi. Aynan shu kunlari darslar bitta yo'nalishdagi emas, yuqoridagi ikkita yo'nalishdagi fanlardan o'tiladi.

Muhokama yakunlangach, Talablarni qabul qilish masalasi ovozga qo'yildi.*

Tarafdorlar -16 ta; qarshilar – 0; betaraflar – 0.

Kun tartibiga qo'yilgan masala Kengash a'zolari tomonidan atroflicha muhokama qilinganidan so'ng, Kengash

QAROR QILDI:

1. D.Aripovning "O'zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi kasbiy qayta tayyorlash kurslarining sud ixtisosliklari bo'yicha malaka talablari"ni tasdiqlash yuzasidan bergan axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. "O'zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi kasbiy qayta tayyorlash kurslarining sud ixtisosliklari bo'yicha malaka talablari" ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Kun tartibidagi ikkinchi masala yuzasidan I.Palvanov so'zga chiqib, nizomning mazmun-mohiyati to'g'risida qisqacha axborot berdi.

H-M.Isoqov: Mazkur Nizom bo'yicha kimda qanday savollar, fikr-mulohazalar mavjud?

A.Eshmurodov: sudya va sudlar apparati xodimlarining malakasini oshirish kurslarida dars o'tilayotganida sohada korrupsiyaga qarshi kurashish, odob-axloq qoidalariga qat'iy rioya etish masalalariga ham alohida e'tibor berilishi kk.

H-M.Isoqov: Fikringizga qo'shilaman. Chunki bo'lajak va amaldagi sudyalari, sud xodimlari uchun o'z faoliyatlarida korrupsiyaga yo'l qo'yish va odob-axloq qoidalarini buzish juda katta muammoli holatlarni keltirib chiqaradi. Shuning uchun bizni dars mashg'ulotlarimizda ushbu masalalarga katta e'tibor beriladi va darslar mashg'ulotlarini katta tajribaga ega bo'lgan o'qituvchilar olib borishadi.

Muhokama yakunlangach, Nizomni qabul qilish masalasi ovozga qo'yildi.

Tarafdorlar -16 ta; qarshilar – 0; betaraflar – 0.

Kun tartibiga qo'yilgan masala Kengash a'zolari tomonidan atroflicha muhokama qilinganidan so'ng, Kengash

QAROR QILDI:

1. I.Palvanovning "O'zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasining sudya va sudlar apparati xodimlarining malakasini oshirish kurslari to'g'risida"gi Nizomni tasdiqlash yuzasidan bergan axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. "O'zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasining sudya va sudlar apparati xodimlarining malakasini oshirish kurslari to'g'risida"gi Nizom ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Kun tartibidagi uchinchi masala yuzasidan D.Aripov so'zga chiqib, nizomning mazmun-mohiyati to'g'risida qisqacha axborot berdi.

H-M.Isoqov: Mazkur Nizom bo'yicha kimda qanday savollar, fikr-mulohazalar mavjud?

Kengash a'zolaridan qo'shimcha savollar, fikr-mulohazalar bildirilmadi.

So'ngra Nizomni qabul qilish masalasi ovozga qo'yildi.

Tarafdorlar -16 ta; qarshilar – 0; betaraflar – 0.

Kun tartibiga qo'yilgan masala Kengash a'zolari tomonidan atroflicha muhokama qilinganidan so'ng, Kengash

QAROR QILDI:

1. D.Aripovning "O'zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasining sudya va sudlar apparati xodimlarining malakasini oshirish kurslari to'g'risida"gi Nizomni tasdiqlash yuzasidan bergan axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. "O'zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasining sudya va sudlar apparati xodimlarining malakasini oshirish kurslari to'g'risida"gi Nizom ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Kun tartibidagi to'rtinchi masala yuzasidan I.Palvanov so'zga chiqib, nizomning mazmun-mohiyati to'g'risida qisqacha axborot berdi.

H-M.Isoqov: Ushbu Nizomda Odil sudlov akademiyasining professor-o'qituvchilari tarkibi mehnatini me'yorlashtirishga oid tartib-qoidalar aks etgan. Unda ilgari o'quv dasturlaridagidan farqli ravishda nazariyaga juda qisqa vaqt berilib, amaliyot va imitatsiya mashg'ulotlariga keng e'tibor berilgan. Mazkur Nizom bo'yicha kimda qanday savollar, fikr-mulohazalar mavjud?

A.Jalilov: Akademiya rahbariyati, ya'ni rektor va prorektorlar ham dars berishadimi?

H-M.Isoqov: Amaldagi qonunchilik bo'yicha rahbariyat tomonidan darslarning berilishi ularga qo'shimcha yuklamalarni bermaydi. Shunday bo'lsada, ilgari Sudyalar oliy maktabi rahbariyati muayyan fanlar bo'yicha ba'zi mavzulardan dars berib kelishgan va yangicha tartibga ko'ra ham dars berishadi.

Muhokama yakunlangach, Nizomni qabul qilish masalasi ovozga qo'yildi.

Tarafdorlar -16 ta; qarshilar – 0; betaraflar – 0.

Kun tartibiga qo'yilgan masala Kengash a'zolari tomonidan atroflicha muhokama qilinganidan so'ng, Kengash

QAROR QILDI:

1. I.Palvanovning "O'zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasining professor-o'qituvchilari tarkibi mehnatini me'yorlashtirish tartibi to'g'risida"gi Nizomni tasdiqlash yuzasidan bergan axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. "O'zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasining professor-o'qituvchilari tarkibi mehnatini me'yorlashtirish tartibi to'g'risida"gi Nizom ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Kun tartibidagi beshinchi masala yuzasidan I.Palvanov so'zga chiqib, nizomning mazmun-mohiyati to'g'risida qisqacha axborot berdi.

H-M.Isoqov: Hozir bizda raqamlashtirish jarayonlari jadal ravishda olib borilayapti. Jumladan, dasturlar, dars jadvallari elektron shaklda tuzilmoqda. Tinglovchilarning bilimlarini nazorat qilish va baholashda ham ushbu elektron dasturdan foydalanishni maqsad qilganmiz. Mazkur Nizom bo'yicha kimda qanday savollar, fikr-mulohazalar mavjud?

Kengash a'zolaridan qo'shimcha savollar, fikr-mulohazalar bildirilmadi. So'ngra Nizomni qabul qilish masalasi ovozga qo'yildi.

Tarafdorlar -16 ta; qarshilar – 0; betaraflar – 0.

Kun tartibiga qo'yilgan masala Kengash a'zolari tomonidan atroflicha muhokama qilinganidan so'ng, Kengash

QAROR QILDI:

1. I.Palvanovning "O'zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasida tinglovchilar bilimini nazorat qilish va baholash tartibi to'g'risida"gi Nizomni tasdiqlash yuzasidan bergan axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. "O'zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasida tinglovchilar bilimini nazorat qilish va baholash tartibi to'g'risida"gi Nizom ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Kun tartibidagi oltinchi masala yuzasidan I.Palvanov so'zga chiqib, nizomning mazmun-mohiyati to'g'risida qisqacha axborot berdi.

H-M.Isoqov: Ilgari Oliy maktab magistraturasi va malaka oshirish tinglovchilari bitiruvchilarini yakuniy attestatsiyadan o'tkazish tartibi boshqacha edi, hozirgi o'zgarishlarga ko'ra Odil sudlov akademiyasi bitiruvchilarini yakuniy attestatsiyadan o'tkazish muddatlari, tartib-qoidalarida jiddiy o'zgarishlar bo'ldi va u Sizlarning e'tiboringizga havola qilinmoqda. Agar ilgari Sizlar yakuniy attestatsiyada ishtirok etganingizda biror muammoli holatlarga duch kelgan bo'lsangiz yoki muayyan kamchiliklarni payqagan bo'lsangiz, hozir shular haqida fikr-mulohazalar bildirishlaringiz mumkin.

Kengash a'zolaridan qo'shimcha savollar, fikr-mulohazalar bildirilmadi. So'ngra Nizomni qabul qilish masalasi ovozga qo'yildi.

Tarafdorlar -16 ta; qarshilar – 0; betaraflar – 0.

Kun tartibiga qo'yilgan masala Kengash a'zolari tomonidan atroflicha muhokama qilinganidan so'ng, Kengash

QAROR QILDI:

1. I.Palvanovning "O'zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi bitiruvchilarini yakuniy attestatsiyadan o'tkazish to'g'risida"gi Nizomni tasdiqlash yuzasidan bergan axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. "O'zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi bitiruvchilarini yakuniy attestatsiyadan o'tkazish to'g'risida"gi Nizom ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Kun tartibidagi yettinchi masala yuzasidan I.Palvanov so'zga chiqib, o'quv rejalari va dasturlarning mazmun-mohiyati to'g'risida qisqacha axborot berdi.

H-M.Isoqov: oldingi o'quv rejalari va dasturlarning yangi o'quv rejalari va dasturlardan farqli jihatlarni sanab berdi va ular bo'yicha kimda qanday savollar, fikr-mulohazalar mavjudligini so'radi?

Kengash a'zolaridan qo'shimcha savollar, fikr-mulohazalar bildirilmadi. So'ngra o'quv rejalari va dasturlarni qabul qilish masalasi ovozga qo'yildi.

Tarafdorlar -16 ta; qarshilar – 0; betaraflar – 0.

Kun tartibiga qo'yilgan masala Kengash a'zolari tomonidan atroflicha muhokama qilinganidan so'ng, Kengash

QAROR QILDI:

1. I.Palvanovning Akademiyada kasbiy qayta tayyorlash kurslarining o'quv rejalari va dasturlarini tasdiqlash yuzasidan bergan axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Akademiyada kasbiy qayta tayyorlash kurslarining o'quv rejalari va dasturlari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Kun tartibidagi sakkizinchi masala yuzasidan H-M.Isoqov so'zga chiqib, Tartibning mazmun-mohiyati to'g'risida qisqacha axborot berdi va u bo'yicha kimda qanday savollar, fikr-mulohazalar mavjudligini so'radi.

R.A.Maxmudova: Tartibda nazarda tutilgan mablag'lar O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan xarajatlar smetasida ko'rsatilganmi?

H-M.Isoqov: Hozircha biz oldin tasdiqlangan xarajatlar smetasi bo'yicha faoliyat yuritib kelayapmiz. Yangi xarajatlar smetasi yangi yildan boshlanadi.

R.A.Maxmudova: Balki yangi xarajatlar smetasi tasdiqlangandan keyin ushbu Tartibni tasdiqlash kerakdir.

H-M.Isoqov: Prezident Apparati tomonidan tasdiqlangan Yo'l harakatida mazkur Tartibni shu oyda tasdiqlash kerakligi ko'rsatilgan, yana kimda qanday savollar, fikr-mulohazalar mavjud?

Kengash a'zolaridan qo'shimcha savollar, fikr-mulohazalar bildirilmadi. So'ngra Tartibni qabul qilish masalasi ovozga qo'yildi.

Tarafdorlar -16 ta; qarshilar – 0; betaraflar – 0.

Kun tartibiga qo'yilgan masala Kengash a'zolari tomonidan atroflicha muhokama qilinganidan so'ng, Kengash

QAROR QILDI:

1. H-M.Isoqovning "O'zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi xodimlarini moddiy rag'batlantirish maxsus jamg'armasini shakllantirish va uning mablag'laridan foydalanish tartibi"ni tasdiqlash yuzasidan bergan axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. "O'zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi xodimlarini moddiy rag'batlantirish maxsus jamg'armasini shakllantirish va uning mablag'laridan foydalanish tartibi" ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Kun tartibidagi to'qqizinchi masala yuzasidan H-M.Isoqov so'zga chiqib, taklif etilgan komissiya tarkibining nomzodlari bilan tanishtirib o'tdi. Jumladan, uning tarkibi Akademiya rektori, Akademiya Kasaba uyushmasi raisi, Oliy sud raisi o'rinbosari, Oliy attestatsiya komissiyasi raisining o'rinbosari, Prezident Administratsiyasining mas'ul xodimi, Konstitutsiyaviy sud raisi o'rinbosari, Sudyalar oliy kengashi raisi o'rinbosari, jami 7 kishidan iborat bo'lishi nazarda tutilayotganligini ma'lum qildi. Ularning nomzodlari bo'yicha qanday taklif va fikr-mulohazalar mavjudligini so'radi. Kengash a'zolaridan qo'shimcha takliflar va fikr-mulohazalar bildirilmadi.

So'ngra O'zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi attestatsiya komissiyasi tarkibini tasdiqlash to'g'risidagi masala ovozga qo'yildi.

Tarafdorlar -16 ta; qarshilar – 0; betaraflar – 0.

Kun tartibiga qo'yilgan masala Kengash a'zolari tomonidan atroflicha muhokama qilinganidan so'ng, Kengash

QAROR QILDI:

1. H-M.Isoqovning O'zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi attestatsiya komissiyasi tarkibini tasdiqlash yuzasidan bergan axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. O'zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi attestatsiya komissiyasi tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

H-M.Isoqov: Hurmatli Kengash a'zolari. Bugungi kun tartibiga qo'yilgan masalalar muhokamasi yakuniga yetdi. Kengash a'zolarida qo'shimcha fikr-mulohazalar, takliflar bormi?

Qo'shimcha fikr-mulohazalar, takliflar bildirilmagach, raislik qiluvchi yig'ilishni yopiq deb e'lon qildi.

Kengash kotibi .



S.B.Xolbayev